



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

EVIDENSIALLIK LINGVISTIK KATEGORIYA SIFATIDA

PhD. Maxzuna G. Xamrayeva

Samarqand davlat chet tillari institute doktoranti

Tel: +99890-616-29-89

makhzuna.khamraeva@gmail.com

Annotatsiya:

Maqolada evidensiallik kategoriyasi ikki til bo‘lmish ingliz va o‘zbek tillaridagi misollar orqali tahlilga olingan. Shuningdek, maqolada evidensiallikning turli tillari ishlatalishidan tashqari modallik, ravishlilik, ta’kid yuklamasi kabi holatlarda ham ishlataliganini ko‘riishimiz mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: visual evidensiallik, ravishlilik, modallik, ulama konstruksiya, mish-mish evidensialligi, tarixiy evidensiallik, ta’kid yuklamasi.

Abstract:

In the article, the category of evidentiality is analyzed through examples in two languages as English and Uzbek. Furthermore, in addition to the use of different languages of evidentiality, the reader will be able to see that the term is also used in cases such as modality, eloquence and emphasis particles.

Keywords: visual evidentiality, adverbiality, modality, connected construction, hearsay evidentiality, folklore evidentiality, emphasis particles.

Аннотация:

В статье категория эвиденциальности анализируется на примерах двух языках – английском и узбекском. Также, помимо использования разных языков, можно увидеть, что эвиденциальность используется и в таких случаях, как модальность, наречие, акцентирующие частицы.

Ключевые слова: эвиденциальность, адвербиальность, модальность, связная конструкция, слуховая эвиденциальность, фольклорная эвиденциальность, ударные частицы.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

Evidensiallik lingvistik kategoriya bo‘lib, undagi bosh ma’no ma’lumot manbasi sanaladi. Biror kimsaning boshqa kimsaga yetkazayotgan ma’lumotida sodir bo‘lgan va sodir bo‘lmagan ish-harakat sodir bo‘lgan kabi tinglovchi tomonidan qabul qilinavedi. Evidensiallikda morfemalar ma’lumotdagi chuqur yoki tag ma’noga qaratilgan bo‘lib, u belgilanmagan yoxud bajarilmagan ish-harakat borasidagi ma’lumotni ham ifodalashi mumkin [1; 23].

Evidensiallik bu - lingvistik kategoriya bo‘lib, unda biror subyekt ma’lum bir obyekt yohud voqeа-hodisa haqidagi eshitib olgan yoki bilib olgan, his qilgan ma’lumotini o‘zgalarga goh o‘zgartirgan, goh o‘zgartirmagan holda yetkazishiga aytildi, gapning semantik xususiyatlari bilan aloqador bo‘lgan grammatik kategoriya bo‘lib, subyekt yetkazayotgan ma’lumotning mazmuniga munosabatini aks ettiradigan lisoniy hodisa hisoblanadi. Mazkur lisoniy hodisa dunyoning ko‘pgina (fransuz, nemis, tukano, tariana, cheyenne) tillarida grammatik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, bunda biror evidensial morfema voqelikka aloqador bo‘lgan bir nechta ma’lumotni qamrab olishi mumkin.

Evidensiallikning asosiy jihatи uzatilayotgan ma’lumotning kelib chiqishini belgilashga xizmat qiladi. O‘z navbatida, asos bir tomonlama subyektning shaxsiy kuzatishi, ya’ni bevosita guvohlik berishi natijasida, ma’lum obyektni yohud voqelikni sezgi organlari bo‘lmish ko‘rish, ta’m bilish va his qilish orqali yetkazsa, boshqa tomondan ma’lumot asosi umuman boshqa manbaga tegishli bo‘lib, bilvosita yuzaga chiqadi. Mazkur ma’lumot boshqalardan eshitib olish yoki tinglash kabi amallar yordamida qabul qilinadi. Ta’kidlash joizki, evidensiallik subyekt o‘zi guvoh bo‘lgan, eshitgan yoki bilvosita o‘zlashtirgan ma’lumotini ifodalovchi leksik, morfologik, sintaktik, diskursiv kabi lisoniy vositalar orqali aniqlangani bois, uni kognitiv jarayon sifatida baholash mumkin. Bu borada dunyoning bir qator olimlari o‘z mulohazalarini bildirishgan [2; 52] deya ta’riflaydi.

“Evidensiallik real voqelikda lingvistik tarkibning ta’sirchanligi, ma’lumotni yagona tavsifga birlashtirish orqali muvofiqlashtirish, ma’lumotning assosini aks ettiruvchi asosiy lisoniy birlikni izlash kabi o‘lchovlarda amalga oshiriladi” [3; 51] deydi.

Ta’kidlash joizki, evidensial voqelikni anglatuvchi grammatik vositalar mavjudligi hamma tillarga ham xos xususiyat emas. Biroq, grammatik evidensiallik ayrim tillar



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

(jumladan ingliz, nemis, rus, fransuz)da rivojlangan bo‘lib, unda leksik birliklar va diskursiv ko‘rsatkichlar muhim o‘rin tutadi, modallik ifodasi hamda grammatik belgilar yordamchi ko‘rsatkich sifatida amal qiladi. Mazkur tillarda evidensiallik nutqda gap yoxud matnda birlamchi neytral kategoriya sifatida yuzaga keladi.

Ma’lumot sifatida shuni aytib o‘tish joizki, ayrim tillarda xulosaviy evidensiallik mavjud bo‘lib, tilshunoslar uni uch guruhga ajratishgan:

1. Ma’lumot jismoniy dalilga asoslanib olinadi;
2. Ma’lumot so‘zlovchining ayrim holatlardagi tajribasi asosida xulosalanadi yoki taxmin qilinadi);
3. Bo‘lib o‘tgan ish-harakat keyinroq amalgalashadi [4; 34].

Evidensiallik lingvistik kategoriya bo‘lib, undagi bosh ma’no ma’lumot manbasi sanaladi. Biror kimsaning boshqa kimsaga yetkazayotgan ma’lumotida sodir bo‘lgan va sodir bo‘lmagan ish-harakat sodir bo‘lgan kabi tinglovchi tomonidan qabul qilinavedi. Evidensiallikda morfemalar ma’lumotdagi chuqur yoki tag ma’noga qaratilgan bo‘lib, u belgilanmagan yoxud bajarilmagan ish-harakat borasidagi ma’lumotni ham ifodalashi mumkin.

Cecilia scolded the dog, I saw it – vizual

Cecilia scolded the dog, I heard it – mish-mish

Cecilia scolded the dog, I inferred it - tahminiy [5; 134-135].

O’zbek tilida esa quyidagi holatda kelishi mumkin:

Anavi yerda ko‘ prik bor, men o‘zim ko‘rdim – vizual

Anavi yerda ko‘ prik bor emish, deb aytishdi menga – novizual/mish-mish

Suv bo‘ylab osilib turgan allanimani ko‘rayapman, menimcha anavi yerda ko‘prik bor – tahminiy.

Ingliz tilidan farqli ravishda mazkur jumlanı tarixiy evidensiallikka ham kiritish mumkin. Misol uchun,

Aanavi yerda ko‘prik bor bo‘lardi, avvallari – tarixiy

Yuqorida keltirilgan ingliz tilidagi jumlalarning barchasi evidensiallikning turli kategoriyalarini ifodalab kelmoqda. Birgina vergul orqali ajratilgan gaplar bilan evidensiallikning turli ma’nolar anglatishini ko‘rshimiz mumkin.

Evidensiallik kategoriysi krosslingvistik tadqiqot natijalariga ko‘ra boshqa lingvistik kategoriyalardan tubdan farqlanishi mumkin chunki u tilshunoslikda



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th January, 2025

turlicha ko‘rinishlarda xususan har xil grammaatik va leksik birliklar, ya’ni verbal affikslar, klitikalar, fe’llar, ravishlar, yuklamalar hamda grammaatik kategoriylar sanalmish zamon, aspekt, modallik kabi kategoriylar ko‘rinishida ham uchrashi mumkin. Misol uchun, ingliz tilida

It is raining out – visual evidensiallik

It must be raining out; I just saw Jim come in with a soaking wet umbrella – xulosaviy evidensiallik.

It apparently snowed - ravish

It may rain tomorrow – modallik [6; 230]

O’zbek tilida esa quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Aytishlaricha, ertaga qor yog’arkan – ravish.

Ertaga qor yog’adi, deb aytishdi menga – ko‘ chirma gap.

Qor yog’ayotganini ko‘rayapman – vizual, sezgi fe’li

Yaaaaa, qor yog’ayapdi-ku – ta’kid yuklamasi

Ertaga qor yog’ishi mumkin – modallik.

Evidensial konstruksiyalarning ikki asosiy semantik turi bor: birinchisi so‘zlovchi shaxsning ma’lumot manbasiga hissa qo‘ssha, ikkinchinchi gapning kuch bilan potensial to‘g‘irlanishiga undaydi. Evidensiallikda ma’lumot grammaatik, leksik va kontekstual yo’llar orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, ulama, ajratilgan (parentetik), ravishli va kontekstual konstruksiyalar orqali ifodalanishi mumkin. Chunonchi ingliz tilida:

I hear my father was sick all night – ulama konstruksiya

My father was sick all night, I hear – aratilgan/parentetik

My father was reportedly sick all night – ravishli

Early this morning, my mother called. My father was sick all night – kontekstual.

Xuddi shu gapning o’zbek tilidagi muqobiliga e’tibor qaratamiz:

Eshitishimcha dadam tuni bilan og‘rib chiqibdi. – ulama konstruksiya

Dadam tuni bilan og‘rib chiqdi, eshitib qoldim. – ajratilgan konstruksiya

Aytishlaricha dadam tuni bilan og‘rib chiqibdi – ravishli

Onam qo‘ng‘iroq qilib dadam tuni bilan og‘rib chiqqanini aytdi. – kontekstual

Xuddi shu jumlanı kvotativ hamda guvohiy evidensiallikda ham ishlatilish holatini ko‘rishimiz mumkin:



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, evidensiallik shaxs hamda ma'lumot to'plamidan iborat bo'lib, ba'zan dalil manbaiga, boshqa paytlarda dalil egasiga ya'ni dalilga ega bo'lgan shaxsga ishora qiladi. Dalil manbasi aniqlanganda evidensiallikni, aniqlanmagan holida anaforani ifodalab kelishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Aikhenvald A. Evidentiality. Oxford: Oxford University Press. 2004. - P 23.
2. Dendale, Patrick & Tasmowski, Liliane. Evidentialty. – Amsterdam: Elsevier, Journal of Pragmatics. 2001. P 33.
3. Mushin, Ilana . Evidentiality and Epistemological Stance. Narrative Retelling. – Amsterdam/Phila-delphia: Benjamins. 2001. – P 39.
4. The Evolution of Grammar: Tense, Aspect, and Modality in the Languages of the World (Vol. 1). Chicago University Press. Joan Bybee, R. P. 1994 – P 44.
5. Chafe W., Nichols J. Evidentiality, the linguistic coding of epistemology. Roy O. Freedle. Alex Publishing Corporation: 1986. - P 28.
6. F de Haan. Semantic Distinctions of Evidentiality, Privacy Policy. - 1999, WALS. p 29.